

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA TINGLAB TUSHUNISH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA AUDIO-VIZUAL TEXNOLOGIYALARNING O'RNI VA SAMARADORLIGI

Jumabayeva Biybimaryam Rustemovna

Ájiniyaz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti 2-kurs magistranti

Anotatsiya: *Mazkur maqolada boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarning tinglab tushunish (audirovaniye) kompetensiyasini rivojlantirishda zamonaviy audio-vizual texnologiyalardan foydalanishning nazariy va metodik asoslari tadqiq qilingan. Tadqiqotda tibglab tushunish tushunish jarayonining psixolingvistik tabiatini inobatga olgan holda, darslarda multimedia vositalari va uch bosqichli tinglash metodikasidan foydalanish samaradorligi statistik ma'lumotlar asosida yoritilgan. Nukus shahri va Shomanay tumani maktablarida o'tkazilgan pedagogik tajriba-sinov natijalari ushbu texnologiyalarning o'quvchilar nutq faolligini oshirishdagi o'rnini isbotlaydi.*

Kalit so'zlar: *tinglab tushunish, audirovaniye, audio-vizual texnologiyalar, multimedia, boshlang'ich ta'lim, kommunikativ kompetensiya, raqamli ta'lim, dars samaradorligi.*

Abstract: *This article explores the theoretical and methodological foundations of using modern audio-visual technologies to develop listening comprehension skills in primary school students during mother tongue lessons. Taking into account the psycholinguistic nature of the listening process, the effectiveness of using multimedia tools and a three-stage listening methodology in lessons is highlighted based on statistical data. The results of the pedagogical experiment conducted in schools of Nukus city and Shomanay district prove the role of these technologies in increasing the speech activity of students*

Keywords: *listening comprehension, audio-visual technologies, multimedia, primary education, communicative competence, digital education, lesson effectiveness.*

Аннотация: *В данной статье исследуются теоретические и методические основы использования современных аудиовизуальных технологий в развитии компетенции аудирования у учащихся начальных классов на уроках родного языка. С учетом психолингвистической природы процесса аудирования, на основе статистических данных освещается эффективность использования мультимедийных средств и трехэтапной методики слушания на уроках. Результаты педагогического эксперимента, проведенного в школах города Нукуса и Шоманайского района, доказывают роль этих технологий в повышении речевой активности учащихся.*

Ключевые слова: *аудирование, аудиовизуальные технологии, мультимедиа, начальное образование, коммуникативная компетенция, цифровое образование, эффективность урока.*

Zamonaviy axborot jamiyatida ta'lim tizimining asosiy vazifasi nafaqat bilimli, balki har tomonlama rivojlangan, axborotni mustaqil tahlil qila oladigan shaxsni tarbiyalashdan iborat[3]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim sohasini isloh qilishga doir farmonlari va "Milliy o'quv dasturi" talablari asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida funksional savodxonlikni shakllantirish ustuvor vazifa etib belgilandi [4].

Nutq faoliyatining to'rt turi ichida tinglab tushunish (audirovanie) muloqotning asosi hisoblanib, u inson hayotidagi barcha kommunikatsiya jarayonlarining qariyb 45-50 foizini tashkil etadi[5]. Shunga qaramay, an'anaviy metodikada tinglab tushunish ko'pincha yordamchi ko'nikma sifatida qaraladi. Bugungi "alfa" avlodi o'quvchilari uchun axborotni faqat o'qituvchi nutqi orqali qabul qilish yetarli emas. Ularning diqqatini jamlash va tushunish darajasini oshirish uchun audio-vizual texnologiyalarning (video, audio, multimedia ilovalari) o'рни beqiyosdir.

Tinglab tushunishning psixolingvistik mohiyati haqida. Eshitib tushunish — bu murakkab kognitiv operatsiya bo'lib, u o'quvchidan diqqat konsentratsiyasi va mantiqiy tafakkurni talab qiladi. Professor G.A. Kallibekova ta'kidlaganidek, boshlang'ich sinf o'quvchisida sensor idrok ertsih xususiyati kuchli bo'lganligi sababli, eshitilayotgan axborot ko'rgazmali obraz bilan mustahkamlanishi lozim [2]. Audio-vizual idrok etishning o'ziga xosligi shundaki, u o'quvchining ham ko'rish, ham eshitish analizatorlarini bir vaqtda ishga tushiradi. Bu esa miyada axborotning yanada mustahkamroq saqlanishiga va mazmunni 30-40% gacha tezroq anglashga xizmat qiladi.

Ona tili darslarida audio-vizual texnologiyalardan foydalanish metodikasi. Tadqiqotimiz doirasida biz boshlang'ich sinf ona tili darslari uchun maxsus "Multimedia-audiogramma" mashqlari tizimini ishlab chiqdik. Ushbu tizim Nukus shahridagi 52-sonli va Shomanay tumanidagi 32-sonli umumta'lim maktablari amaliyotiga tatbiq etildi.

Zamonaviy texnik vositalarni integratsiyalash:

Elektron darsliklar va audio-hikoyalar: O'quvchi matnni o'qish bilan birga uning aktyorlar tomonidan o'qilgan audio variantini tinglaydi.

QR-kodli topshiriqlar: O'quvchilar darslikdagi maxsus kodni skanerlash orqali matnga doir videoni tomosha qiladilar.

"Interactive Listening" o'yinlari: Masalan, o'quvchi audioni eshitib, smart-doskada rasmlarni voqealar ketma-ketligi bo'yicha joylashtiradi.

Ona tili darslarida uch boshqichli tinglash texnologiyasi va uning samaradorligi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tinglab tushunish shunchaki mexanik jarayon emas, balki mantiqiy ketma-ketlikka ega bo'lgan kognitiv faoliyatdir[1]. Biz tadqiqotimiz davomida Shomanay tumani maktablarida quyidagi uch bosqichli modelni amaliyotga tatbiq etdik:

1. Pre-listening (Tinglashdan oldingi bosqich): Taxmin qilish va motivatsiya.

Ushbu bosqichning asosiy maqsadi o'quvchini matni tinglashga tayyorlash va unda qiziqish uyg'otishdir. Boshlang'ich sinf o'quvchisida visual xotira kuchli bo'lgani uchun ushbu bosqichda "Aqliy hujum" va "Bashorat qilish" metodlaridan foydalaniladi.

Amaliy jarayon: O'qituvchi mavzuga doir kalit so'zlarni smart-doskada namoyish etadi yoki mavzu mazmunini ochib beruvchi qisqa videolavha (audio-vizual signal) ko'rsatadi.

Kutilayotgan natija: O'quvchining lug'at boyligidagi mavjud so'zlar faollashadi va u matn mazmuni haqida dastlabki farazlarni shakllantiradi.

2. While-listening (Tinglash jarayoni): Faol idrok etish va tahlil.

Tinglash jarayonida o'quvchi passiv tinglovchi bo'lib qolmasligi uchun unga aniq kognitiv vazifalar beriladi. Bunda biz Ishikawa jadvallari (Baliq skeleti) metodikasini qo'lladik.

Amaliy jarayon: O'quvchi audio matni tinglash davomida hikoyadagi muammoni "baliqning boshi"ga, uning sabablarini esa "baliqning suyaklari"ga belgilab boradi. Bu usul o'quvchidan diqqatni jamlashni va axborotni tizimlashtirishni talab qiladi.

Kutilayotgan natija: O'quvchida matndagi asosiy va ikkinchi darajali ma'lumotlarni ajratish, voqealar o'rtasidagi sabab-oqibat bog'liqligini tushunish ko'nikmasi shakllanadi.

3. Post-listening (Tinglashdan keyingi bosqich): Sintez va ijodiy yondashuv.

Ushbu yakuniy bosqichda eshitilgan ma'lumotlar qayta ishlanadi va yangi ijodiy mahsulotga aylantiriladi. Bu o'quvchining til kompetensiyasini amalda qo'llash bosqichidir.

Amaliy jarayon: O'quvchilarga "Mantiqiy yakun" yoki "Raqamli hikoya" topshiriqlari beriladi. Masalan, matnning audio varianti tinglangach, uning davomini o'quvchining o'zi to'qiydi yoki hikoya qahramoniga ovoz berish orqali rolli o'yin tashkil etadi.

Kutilayotgan natija: Tinglangan ma'lumot asosida o'quvchining mustaqil nutqi rivojlanadi, u o'z munosabatini bildirishni va xulosa chiqarishni o'rganadi.

Tadqiqotning amaliy samaradorligini aniqlash maqsadida Nukus shahridagi 52-sonli va Shomanay tumanidagi umumta'lim maktablarining 3-sinf o'quvchilari o'rtasida pedagogik tajriba-sinov o'tkazildi. Tajriba-sinov davomida o'quvchilarning tinglab tushunish ko'nikmalari uchta asosiy mezon bo'yicha (matn mazmunini anglash, detallarni eslab qolish va nutqiy munosabat bildirish) 100 foizlik shkala asosida baholandi.

Jadval 1: Tajriba va nazorat guruhlarida tinglab tushunish samaradorligi (foiz hisobida)

Baholash mezonlari	Nazorat guruhi (An'anaviy)	Tajriba guruhi (Audio-vizual)	Samaradorlik farqi
Matn mazmunini to'liq anglash darajasi	62%	88%	+26%
Detallarni va xronologiyani eslab qolish	55%	82%	+27%
Tinglangan ma'lumotga ijodiy munosabat	48%	79%	+31%
O'rtacha ko'rsatgich	55%	83%	+28%

Olingan statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, audio-vizual texnologiyalar qo'llanilgan tajriba guruhida o'quvchilarning umumiy o'zlashtirish ko'rsatkichi nazorat guruhiga nisbatan o'rtacha 28 foizga yuqori bo'ldi. Ayniqsa, "Tinglangan ma'lumotga ijodiy munosabat bildirish" mezonida eng yuqori o'sish (31%) kuzatildi.

Bu esa darslarda multimedia vositalari va interfaol topshiriqlarning qo'llanilishi o'quvchilarda nafaqat axborotni qabul qilish, balki uni tahlil qilish va o'z fikrini erkin bayon etish kompetensiyasini sezilarli darajada rivojlantirishini isbotlaydi.

Nukus shahri va Shomanay tumanidagi maktablarda olib borgan tajribalarimiz shuni tasdiqladiki, darslarda audio-vizual metodlardan foydalanish o'quvchilar uchun juda samarali yo'ldir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida eshitib tushunish ko'nikmasini shakllantirish ona tili o'qitish metodikasining uzviy va fundamental qismi hisoblanadi. Tajriba-sinov jarayonida aniq bo'ldiki, an'anaviy matn o'qish metodlaridan voz kechib, audio-vizual texnologiyalarni dars jarayoniga tizimli integratsiyalash o'quvchilarning axborotni qabul qilish tezligini va mantiqiy tahlil qilish darajasini sezilarli darajada oshiradi. Biz amaliyotda qo'llagan uch bosqichli tinglash usuli bolani darsda zerikib o'tirishdan qutqaradi. Bu usul ularni faol muloqotga kirishishga va o'z fikrini erkin aytishga o'rgatadi.

Tajriba-sinov vaqtida darslarda qo'llanilgan audio-vizual vositlar, xususan, multimedia ilovalari va interfaol topshiriqlar o'quvchining ham ko'rish, ham eshitish analizatorlarini bir vaqtda faollashtirib, diqqat konsentratsiyasining barqarorligini ta'minladi.

Ushbu yondashuv yordamida o'quvchilar nafaqat yangi so'zlar o'rganishdi, balki Ishikawa modeli orqali voqealarning sabab va oqibatlarini o'zlari mustaqil tahlil qilishni boshladilar.

Xulosa o'nida aytish mumkinki, zamonaviy texnologiyalar darsda shunchaki ko'rgazma emas.

Ular bolaning aqlan rivojlanishi va tilni mukammal o'rganishi uchun eng asosiy metodik ehtiyojdir.

Kelgusida ona tili darsliklari uchun tizimli ravishda "Audio-matnlar banki"ni yaratish va baholash mezonlariga ijodiy tinglash topshiriqlarini kiritish ta'lim samaradorligini yanada yuqori bosqichga olib chiqishi shubhasizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. G'ulomov A., Ne'matov H. Ona tili o'qitish metodikasi. – T.: "Universitet", 2012.
2. Kallibekova G.A. Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini o'stirishning metodik asoslari. // "Pedagogika" jurnali. – T.: 2021.
3. Qudaybergenova K. Kompetentlik yondashuv — ta'lim sifatini oshirishning asosi. – Nukus: "Bilim", 2012.
4. Safarova R. va boshqalar. "Ona tili" darsliklari metodikasi (Kompetensiyaviy yondashuv asosida). – T.: "O'qituvchi", 2018.
5. Sayfullayeva R. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – T.: "Fan va texnologiya", 2010.